

## O‘ZBEK, TURK VA FRANSUZ TILLARIDA QO‘SHMA SONLARNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Karimova Nilufar Xabibullayevna

Fan va texnologiyalar universiteti, “Xorijiy tillar” kafedrası v.b.dotsenti

E-mail : [nilush340@gmail.com](mailto:nilush340@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19856423>

**Аннотация.** Mazkur maqolada o‘zbek, turk va fransuz tillarida qo‘shma sonlarning qiyosiy-tipologik tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda qo‘shma sonlarning struktur modellari, morfologik xususiyatlari, semantik munosabatlari va orfografik tamoyillari o‘rganildi. Turkiy tillarda qo‘shma sonlar chiziqli analitik model asosida shakllanishi, fransuz tilida esa derivatsion-analitik va qisman multiplikativ tizim mavjudligi aniqlandi. Shuningdek, qo‘shma sonlarning universal va milliy xususiyatlari hamda ularning kognitiv-lingvistik tabiati ochib berildi.

**Калит со‘злар:** qo‘shma sonlar, son kategoriyasi, qiyosiy tipologiya, analitik model, derivatsion tizim, vigesimal tizim, semantik munosabat, morfologik xususiyat, orfografiya.

**Аннотация.** В данной статье представлен сравнительно-типологический анализ составных числительных в узбекском, турецком и французском языках. Исследуются структурные модели, морфологические особенности, семантические отношения и орфографические принципы образования составных числительных. Установлено, что в тюркских языках преобладает линейно-аналитическая модель, тогда как во французском языке функционирует деривационно-аналитическая и частично мультипликативная система. Также выявлены универсальные и национальные особенности составных числительных и раскрыта их когнитивно-лингвистическая природа.

**Ключевые слова:** составные числительные, категория числа, сравнительная типология, аналитическая модель, деривационная система, вигесимальная система, семантические отношения, морфология, орфография.

**Annotation.** This article presents a comparative-typological analysis of compound numerals in Uzbek, Turkish, and French. The study examines their structural models, morphological features, semantic relations, and orthographic principles. It is revealed that Turkic languages follow a linear-analytic model, whereas French demonstrates a derivational-analytic and partially multiplicative system. The research also identifies universal and language-specific features of compound numerals and highlights their cognitive-linguistic nature.

**Keywords:** compound numerals, numeral category, comparative typology, analytic model, derivational system, vigesimal system, semantic relations, morphology, orthography.

Tilshunoslikda son kategoriyasi universal leksik-grammatik kategoriyalardan biri sifatida nafaqat miqdor munosabatlarini ifodalovchi vosita, balki tilning kognitiv, nominativ va struktura xususiyatlarini namoyon etuvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi. Sonlar orqali inson tafakkurining borliqni miqdoriy anglash mexanizmi tilda o‘z ifodasini topadi. Shu nuqtai nazardan sonlarning, ayniqsa, qo‘shma sonlarning tuzilishini turli tipologik tizimga mansub tillar kesimida qiyosiy o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Mahmudov N., O‘zbek tilining nazariy grammatikasi, 2012, 210–212-betlar

Turkiy tillar, jumladan o'zbek va turk tillarida qo'shma sonlar komponentlarning chiziqli qo'shilishi asosida shakllanadi va ularda miqdoriy munosabatlar izchillik prinsipi asosida ifodalanadi. Bu holat agglyutinativ tillarga xos bo'lgan analitik birikuv modeli bilan bog'liqdir.

Fransuz tilida esa qo'shma sonlarning tuzilishi tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan murakkab derivatsion-analitik tizimga ega bo'lib, ayrim hollarda vigesimal (yigirmalik) sanoq modeliga asoslanadi. Mazkur holat sonlarning tuzilishida tilning milliy-madaniy xususiyatlari ham aks etishini ko'rsatadi.<sup>2</sup>

O'zbek tilshunosligida sonlar tizimi va ularning grammatik xususiyatlari A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, H.Ne'matov, R.Qo'ng'urov kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ularda sonlarning morfologik tabiati, semantik guruhlari va sintaktik vazifalari yoritilgan bo'lsa-da, qo'shma sonlarning qiyosiy-tipologik jihatdan maxsus o'rganilishi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada tahlil qilinmagan<sup>3</sup>.

Turk tilshunosligida Muharrem Ergin va Tahsin Banguog'lu ishlarida sonlarning tuzilishi, ularning morfologik xususiyatlari va sintaktik funksiyalari atroflicha yoritilgan bo'lib, qo'shma sonlarning komponentlar asosida analitik tarzda shakllanishi qayd etiladi<sup>4</sup>.

Fransuz tilshunosligida esa qo'shma sonlar tilning eng murakkab grammatik hodisalaridan biri sifatida baholanadi. Ularning yozilish qoidalari, struktura modellari va tarixiy shakllanishi M.Grevisse va A.Goosse tomonidan batafsil tahlil qilingan. Ayniqsa, *quatre-vingts*, *quatre-vingt-dix* tipidagi sonlar tilda arifmetik-multiplikativ fikrlash modeli saqlanib qolganligini ko'rsatadi<sup>5</sup>.

Mazkur maqolaning dolzarbligi turli tipologik tizimga mansub tillarda qo'shma sonlarning struktural xususiyatlarini qiyosiy o'rganish zarurati, sonlarning kognitiv-lingvistik tabiatini ochib berishi, qiyosiy tilshunoslikda agglyutinativ va analitik tizimlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash bilan belgilanadi, maqsadi esa o'zbek, turk va fransuz tillarida qo'shma sonlarning tuzilish modellari, morfologik xususiyatlari, orfografik tamoyillari hamda tipologik o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iboratdir.

Maqolaning asosiy vazifalari qo'shma son tushunchasining nazariy asoslarini yoritish, o'zbek tilida qo'shma sonlarning struktur-semantik xususiyatlarini tahlil qilish, turk tilida qo'shma sonlarning yasaliq modellari aniqlash, fransuz tilida qo'shma sonlarning derivatsion-analitik xususiyatlarini ochib berish, qiyosiy-tipologik xulosalar chiqarish hisoblanadi.

Qo'shma sonlarning ilk bor uch til o'zbek, turk va fransuz tillari materiallari asosida qiyosiy-tipologik jihatdan kompleks ravishda tahlil qilinishi va ularning universal hamda milliy xususiyatlari maqolaning yangiligini bildiradi.

Sonlar tizimi va ularning grammatik tabiati tilshunoslikda turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan bo'lib, ularning leksik-grammatik xususiyatlari, semantik tasnifi hamda sintaktik funksiyalari haqida qator nazariy qarashlar mavjud. Qo'shma sonlar esa mazkur kategoriyaning tuzilish jihatidan murakkab qatlamini tashkil etib, ularning shakllanish modellari tilning tipologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Chunki qo'shma sonlarda miqdoriy ma'no komponentlar o'rtasidagi izchil semantik munosabat orqali yuzaga chiqadi.

O'zbek tilshunosligida sonlar mustaqil so'z turkumi sifatida izchil o'rganilgan. A.G'ulomov qo'shma sonlarni ikki yoki undan ortiq son komponentlarining semantik va

<sup>2</sup> Riegel M., Pellat J.-CH., Rioul R., Grammaire méthodique du français, 2016, p. 336

<sup>3</sup> G'ulomov A., O'zbek tili grammatikasi, 1975, 247-bet).

<sup>4</sup> Ergin M., Türk Dil Bilgisi, 2009, s. 287; Banguog'lu T., Türkçenin Grameri, 2011, s. 348.

<sup>5</sup> Grevisse M., Goosse A., Le Bon Usage, 2016, p. 1024).

sintaktik birikuvi natijasida hosil bo'ladigan birlik sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, bunday birikmalarda har bir komponent mustaqil leksik ma'noga ega bo'lib, umumiy miqdoriy ma'no ularning qo'shilishi orqali shakllanadi.<sup>6</sup> Masalan, *o'ttiz ikki, bir yuz o'n besh* kabi qo'shma sonlarda avval katta son birligi, keyin esa kichik son birligi keladi. Bu holat o'zbek tilida sanoq tizimining o'nlik prinsipiga asoslanganligini ko'rsatadi.

Sh. Rahmatullayev qo'shma sonlarni analitik xarakterga ega birikmalar sifatida talqin qilib, ularda komponentlar o'rtasidagi tobelik munosabati izchil tarzda saqlanishini qayd etadi. Olimning fikricha, *yigirma to'rt, sakson yetti, ikki yuz qirq* tipidagi birikmalarda semantik markaz so'nggi komponentga to'g'ri keladi va u umumiy miqdoriy ma'noni aniqlashtirib beradi<sup>7</sup>. Demak, qo'shma sonlar nafaqat miqdorni, balki tarkibiy komponentlarining iyerarxik ketma-ketligini ham ifodalaydi.

N. Mahmudov sonlarning grammatik tabiati haqida fikr yuritar ekan, ularni sintaktik munosabatlarni shakllantirishda faol ishtirok etuvchi vosita sifatida baholaydi. Uning qayd etishicha, qo'shma sonlar otlar bilan birikib aniqlovchilik vazifasini bajaradi: *bir yuz ellik talaba, ikki ming yigirma to'rtinchi yil* kabi birikmalarda son komponenti predmetning aniq miqdorini ko'rsatadi<sup>8</sup>. Bu holat sonlarning sintaktik faolligini ko'rsatadi.

Turk tilshunosligida Muharrem Ergin sonlarning tuzilishini tahlil qilib, qo'shma sonlarning ikki yoki undan ortiq sonning qator kelishi orqali hosil bo'lishini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, turk tilida qo'shma sonlar grammatik ko'rsatkichlar orqali emas, balki leksik birikuv asosida shakllanadi<sup>9</sup>. Masalan, *yirmi besh, yuz kirk iki, bin dokuz yuz seksen dort* kabi birikmalarda har bir komponent o'z ma'nosini saqlaydi va umumiy miqdoriy ma'noni shakllantirishda ishtirok etadi. Bu holat turk tilidagi sanoq tizimining shaffof va izchil ekanligini ko'rsatadi.

Tahsin Banguog'lu turk tilida qo'shma sonlarning chiziqli tartib asosida shakllanishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, son komponentlarining ketma-ket kelishi miqdoriy munosabatlarning mantiqiy izchilligini ta'minlaydi: *otuz uch, iki yuz on, uch bin besh yuz* kabi birikmalarda yuqori razryad avval, quyi razryad keyin keladi<sup>10</sup>. Bu xususiyat turkiy tillarga xos bo'lgan agglyutativ tafakkur tarzining leksik sathdagi ko'rinishi hisoblanadi.

Zeynep Korkmaz sonlarning sintaktik vazifasiga e'tibor qaratib, qo'shma sonlarning otlar bilan birikib aniqlovchi vazifasini bajarishini qayd etadi: *yuz elli og'renchi, iki bin yirmi uchunchu yil* kabi birikmalarda son predmetning miqdoriy belgisini aniqlab beradi<sup>11</sup>. Shu bilan birga, turk tilida sondan keyin ot ko'plik qo'shimchasini olmasligi (*uch kitap, besh og'renchi*) qo'shma sonlarning sintaktik xususiyati bilan bog'liqdir.

Fransuz tilshunosligida qo'shma sonlar murakkab derivatsion-analitik tizim sifatida baholanadi. M.Riegel, J.CH.Pellat va R.Rioul fransuz tilida sonlarning yasalishida ham o'nlik, ham yigirmalik sanoq tizimlari ishtirok etishini qayd etadi.

Masalan, *vingt-quatre, trente-deux* kabi birikmalar o'nlik prinsipiga asoslangan bo'lsa, *quatre-vingts, quatre-vingt-dix* kabi birikmalar yigirmalik sanoq tizimiga tayanadi<sup>12</sup>. Bu holat fransuz tilida sanoq tizimining tarixiy qatlamlari saqlanib qolganligini ko'rsatadi.

<sup>6</sup> G'ulomov A., O'zbek tili grammatikasi, 1975, 248-bet

<sup>7</sup> Rahmatullayev SH., Hozirgi o'zbek adabiy tili, 2006, 382–383-betlar.

<sup>8</sup> Mahmudov N., O'zbek tilining nazariy grammatikasi, 2012, 214-bet.

<sup>9</sup> Ergin M., Türk Dil Bilgisi, 2009, s. 288.

<sup>10</sup> Banguog'lu T., Türkçenin Grameri, 2011, s. 349

<sup>11</sup> Korkmaz Z., Türkiye Türkçesi Grameri, 2014, s. 452)

<sup>12</sup> Riegel M., Pellat J.-CH., Rioul R., Grammaire méthodique du français, 2016, p. 337.

M.Grevisse va F.Goosse fransuz tilida qo'shma sonlarning orfografik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning defis orqali yozilishini asosiy tamoyil sifatida ko'rsatadi: *vingt-cinq, trente-huit, soixante-dix*.<sup>13</sup> Shuningdek, *vingt et un* birikmasida bog'lovchi elementning ishtirok etishi fransuz tilida qo'shma sonlarning sintaktik xususiyatini namoyon qiladi.

Georges Gougenheim fransuz tilida qo'shma sonlarning funksional jihatini tahlil qilib, ular nutqda aniqlik va hisob-kitob munosabatlarini ifodalashda muhim vosita ekanligini qayd etadi. Masalan, *cent vingt étudiants, deux mille vingt-quatre* kabi birikmalarda son predmetning miqdoriy belgisini aniq ko'rsatadi<sup>14</sup>.

Yuqoridagi nazariy qarashlar va til materiallari tahlili shuni ko'rsatadiki, turkiy tillarda qo'shma sonlar asosan chiziqli-analitik model asosida shakllansa, fransuz tilida ular derivatsion-analitik va qisman multiplikativ (vigesimal) modelga tayanadi. Shuni ta'kidlash joizki, barcha tillarda qo'shma sonlarga xos universal xususiyatlar komponentli tuzilish, miqdoriy munosabatlarni izchil ifodalash, ot bilan birikib aniqlovchilik vazifasini bajarish va morfologik jihatdan o'zgaraslik kuzatiladi. Ammo ularning strukturaviy modellari, orfografik tamoyillari va sanoq tizimiga munosabati har bir tilning tipologik tabiati asosida o'ziga xos tarzda shakllanadi.

O'zbek tilida qo'shma sonlar son kategoriyasining tuzilish jihatidan murakkab, semantik jihatdan esa izchil va tizimli qatlamini tashkil etadi. Ular ikki yoki undan ortiq sodda sonlarning miqdoriy munosabat asosida qo'shilishi natijasida shakllanib, o'nlik sanoq tizimiga tayanadi. Bu holat o'zbek tilida miqdoriy munosabatlarning kognitiv jihatdan izchil va shaffof tarzda ifodalanishini ta'minlaydi<sup>15</sup>.

Qo'shma sonlarning tuzilishida komponentlar o'rtasida razryad munosabati yetakchi o'rin tutadi. Ularda sonlar chapdan o'ngga qarab kamayuvchi iyerarxiya asosida joylashadi va har bir keyingi komponent oldingisini aniqlashtirib boradi: *yigirma yetti, o'ttiz to'qqiz, bir yuz ellik ikki, ikki ming to'rt yuz o'n olti*. Bunday izchillik sanoq jarayonining lingvistik modeli sifatida namoyon bo'ladi<sup>16</sup>.

O'zbek tilida qo'shma sonlar komponentlarining ketma-ketligi son birliklarining iyerarxik tartibiga asoslanadi va quyidagi modellarda ifodalanadi:

o'nlik + birlik → *yigirma olti, qirq ikki*

yuzlik + o'nlik → *bir yuz o'ttiz, uch yuz ellik*

yuzlik + o'nlik + birlik → *bir yuz o'ttiz besh*

minglik + yuzlik + o'nlik + birlik → *ikki ming to'rt yuz ellik olti*

Bu modellarda komponentlar muayyan iyerarxik tartibda joylashib, birinchi qism yuqori son birligini, keyingi qismlar esa quyi son birliklarini anglatadi hamda semantik tobelik munosabatini hosil qiladi. Natijada qo'shma son tarkibida grammatik markaz so'nggi komponent sifatida qoraladi.

Qo'shma sonlar morfologik jihatdan o'zgaras xususiyatga ega bo'lib, ularda miqdoriy ma'no affiksatsiya orqali emas, balki leksik birikuv orqali ifodalanadi: to'rt yuz sakson, yetti ming ikki yuz o'n. Bu xususiyat sonlarning leksik-grammatik tabiati bilan bog'liqdir<sup>17</sup>.

<sup>13</sup> Grevisse M., Goosse A., Le Bon Usage, 2016, p. 1026.

<sup>14</sup> Gougenheim G., Grammaire de la langue française, 1990, p. 221

<sup>15</sup> Rahmatullayev SH., Hozirgi o'zbek adabiy tili, 2006, 383-bet.

<sup>16</sup> G'ulomov A., O'zbek tili grammatikasi, 1975, 249-bet.

<sup>17</sup> Mahmudov N., O'zbek tilining nazariy grammatikasi, 2012, 215-bet.

O'zbek tilida qo'shma sonlarning grammatik markazi ularning tartib songa aylanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Tartib son yasovchi *-inchi* qo'shimchasi faqat oxirgi komponentga qo'shiladi: ***bir yuz o'n beshinchi talaba, ikki ming yigirma to'rtinchi yil.***

Bu holat qo'shma sonning semantik markazi so'nggi komponent ekanligini ko'rsatadi va komponentlar o'rtasidagi iyerarxik munosabatni tasdiqlaydi.

Qo'shma sonlar sintaktik jihatdan asosan ot bilan birikib aniqlovchilik vazifasini bajaradi: ***bir yuz o'ttiz talaba, ikki ming yigirma uchinchi yil.***

Bunda son predmetning aniq miqdoriy belgisini ko'rsatadi. Shu bilan birga, substantivatsiya hodisasi natijasida ular mustaqil gap bo'lagi sifatida ham kelishi mumkin: ***Yigirma beshi qatnashdi, Bir yuz o'n beshi qabul qilindi.***

Bunday hollarda son otlashib, ko'plik va egalik qo'shimchalarini qabul qiladi. Bu esa sonlarning morfologik imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi<sup>18</sup>.

Qo'shma sonlarning orfografik xususiyati ham ularning strukturasi bilan bevosita bog'liq. Ular har doim ajratib yoziladi: ***o'ttiz ikki, bir yuz to'qson to'rt, ikki ming yigirma uch.*** Bu holat komponentlarning leksik mustaqilligini saqlab qoladi va sanoq tizimining ochiqqligini ta'minlaydi.

Semantik jihatdan qo'shma sonlarda miqdoriy ma'no har bir keyingi komponent vositasida bosqichma-bosqich aniqlashadi: ***“bir yuz”*** umumiy miqdorni anglatrsa, ***“bir yuz o'n”*** shaklida o'nlik komponenti orqali ma'no konkretlashadi, ***“bir yuz o'n besh”*** birikmasida esa birlik komponenti ishtirokida to'liq miqdoriy aniqlikka erishiladi. Shu bois qo'shma sonlarda ma'no iyerarxik tarzda kengayib boradi.

Qo'shma sonlar nafaqat tuzilishi va ma'nosi jihatidan, balki uslubiy qo'llanishi nuqtai nazaridan ham faol leksik-grammatik vosita hisoblanadi. Ular rasmiy-idoraviy matnlarda (***bir yuz yigirma nafar ishtirokchi***), ilmiy uslubda (***ikki ming yigirma to'rtinchi yilda o'tkazilgan tadqiqot***), statistik bayonlarda (***uch yuz qirq besh holat qayd etildi***) aniqlik, obyektivlik va miqdoriy ma'lumotning ishonchli ifodasini ta'minlaydi. Shu jihatdan qo'shma sonlar nutqning turli funksional uslublarida axborotni aniq va tizimli yetkazishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, o'zbek tilidagi qo'shma sonlar razryadlar iyerarxiyasiga asoslangan, semantik jihatdan izchil, morfologik jihatdan o'zgarmas, sintaktik jihatdan faol va orfografik jihatdan ajratib yoziladigan tizimli leksik-grammatik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur xususiyatlar ularning shaffof va mantiqiy tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayni paytda, ushbu belgilar qo'shma sonlarni turk va fransuz tillaridagi mos birliklar bilan qiyosiy o'rganish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Turk tilida ham qo'shma sonlar muayyan struktur va semantik qonuniyatlar asosida shakllanadi, biroq ularning tuzilish tamoyili o'zbek tilidan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Turk tilida sonlar mustaqil so'z turkumi sifatida morfologik jihatdan o'zgarmas xususiyatga ega bo'lib, miqdoriy munosabatlar asosan leksik birikuv orqali ifodalanadi. Qo'shma sonlar ikki yoki undan ortiq sodd sonlarning izchil qator kelishi natijasida shakllanib, o'nlik sanoq tizimiga tayanadi. Bu holat turk tilida sanoq tizimining mantiqiy va shaffof tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi<sup>19</sup>.

Turk tilida qo'shma sonlarning tuzilishida razryad munosabati yetakchi o'rin tutadi. Komponentlar yuqori razryaddan quyi razryadga qarab joylashadi: ***yirmi yedi, otuz dokuz, yuz***

<sup>18</sup> Ne'matov H., O'zbek tili morfologiyasi, 1998, 167-bet.

<sup>19</sup> Ergin, Muharrem. Türk Dil Bilgisi. İstanbul: Bayrak Basım/Yayım, 2009, s. 288–289.



*elli iki, iki bin dört yüz on altı*. Bunda har bir keyingi komponent oldingisini semantik jihatdan aniqlashtiradi va umumiy miqdoriy ma'no bosqichma-bosqich shakllanadi<sup>20</sup>.

Turk tilida qo'shma sonlarning muhim grammatik xususiyatlaridan biri - bir komponentining ayrim razryadlarda tushib qolishidir. Xususan, *yüz* va *bin* birlik razryadida bir bilan ishlatilmaydi: *bir yüz* emas, balki *yüz*; *bir bin* emas, balki *bin*. Bu holat sonlarning iqtisodiylik tamoyiliga asoslanganligini ko'rsatadi<sup>21</sup>.

Shuningdek, *bin* komponenti ko'plik qo'shimchasini qabul qilmaydi: *iki bin* shakli me'yor hisoblanadi, *iki binler* shakli esa adabiy tilda qo'llanmaydi. Chunki sonning o'ziyoq miqdoriy ma'noni ifodalash uchun yetarli hisoblanadi<sup>22</sup>.

Qolaversa, turk tilida qo'shma sonlar morfologik jihatdan o'zgaras bo'lib, miqdoriy ma'no affiksatsiya orqali emas, balki leksik birikuv orqali ifodalanadi: *dört yüz seksen, yedi bin iki yüz on*. Bu xususiyat ularning leksik-grammatik tabiati bilan bog'liqdir<sup>23</sup>.

Tartib son yasovchi *-(I)nchi* qo'shimchasi qo'shma sonning faqat oxirgi komponentiga qo'shiladi: *yüz on beshinchi ög'renchi, iki bin yirmi üçüncü yıl*. Bu holat qo'shma sonning semantik markazi so'nggi komponent ekanligini ko'rsatadi<sup>24</sup>.

Sintaktik jihatdan qo'shma sonlar ot bilan birikib aniqlovchi vazifasini bajaradi: *yüz elli ög'renchi, üç yüz kırk besh katılmı*. Sondan keyin kelgan ot ko'plik qo'shimchasini olmaydi: *üç kitap, besh ög'renchi*. Bu holat sonning o'zi ko'plik ma'nosini ifodalash uchun yetarli ekanligi bilan izohlanadi<sup>25</sup>.

Qo'shma sonlarning yana bir muhim tipologik xususiyati-ularning bog'lovchisiz tuzilishidir. Turk tilida komponentlar orasida hech qanday bog'lovchi element ishlatilmaydi: yirmi bir. Bu holat fransuz tilidagi vingt et un modeli bilan qiyosiy tahlil qilishda muhim tipologik belgi bo'lib xizmat qiladi.

Substantivatsiya jarayonida qo'shma sonlar mustaqil gap bo'lagi sifatida ham kelishi mumkin: *Yirmi beshi geldi, yüz onu kabul edildi*. Bunday hollarda ular egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi<sup>26</sup>.

Orfografik jihatdan turk tilida qo'shma sonlar har doim ajratib yoziladi: *yirmi dört, yüz yetmiş besh, iki bin yirmi üç*. Bu holat komponentlarning leksik mustaqilligini saqlab qoladi.

Fransuz tilida sonlar tizimi numeral formationning analitik-derivatsion xususiyati bilan ajralib turadi. Unda miqdoriy munosabatlar leksik elementlarning birikuvi orqali ifodalansa-da, mazkur birikuv turkiy tillardagi kabi to'liq chiziqli va shaffof xarakterga ega emas. Chunki fransuz tilida qo'shma sonlar shakllanishida ham additiv (qo'shishga asoslangan), ham multiplikativ (ko'paytirishga asoslangan) modellar ishtirok etadi. Bu holat fransuz tili sonlar tizimining aralash tipologik tabiatga ega ekanligini ko'rsatadi<sup>27</sup>.

Additiv model asosida shakllangan qo'shma sonlar o'nlik sanoq tizimiga tayanadi: *vingt-quatre, trente-deux, quarante-cinq, soixante-huit*.

Bu birikmalarda birinchi komponent razryadni belgilasa, ikkinchi komponent uni konkretlashtiradi. Biroq turkiy tillardan farqli ravishda ular defis orqali yoziladi va orfografik

<sup>20</sup> Banguog'lu, Tahsin. Türkçenin Grameri. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2011, s. 349–350

<sup>21</sup> Ergin, Muharrem. Türk Dil Bilgisi. İstanbul: Bayrak Basım/Yayım, 2009, s. 290.

<sup>22</sup> Korkmaz, Zeynep. Türkiye Türkçesi Grameri (Şekil Bilgisi). Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2014, s. 454.

<sup>23</sup> Korkmaz, Zeynep. Türkiye Türkçesi Grameri (Şekil Bilgisi). Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2014, s. 453.

<sup>24</sup> Ergin, Muharrem. Türk Dil Bilgisi. İstanbul: Bayrak Basım/Yayım, 2009, s. 289.

<sup>25</sup> Banguog'lu, Tahsin. Türkçenin Grameri. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2011, s. 350.

<sup>26</sup> Korkmaz, Zeynep. Türkiye Türkçesi Grameri (Şekil Bilgisi). Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2014, s. 455.

<sup>27</sup> Riegel M., Pellat J.-C., Rioul R. Grammaire méthodique du français. — Paris: Presses Universitaires de France, 2016. — P. 337–338.

jihatdan yaxlit leksik birlik sifatida qabul qilinadi. 1990-yilda Académie française tomonidan qabul qilingan orfografik islohotdan so'ng qo'shma sonlarni defis bilan yozish tamoyili yanada izchillashtirildi va butun konstruksiyani yagona grafik birlik sifatida qabul qilish tendensiyasi kuchaydi<sup>28</sup>.

Fransuz tilida *et* bog'lovchi elementining ishtiroki numeral formation jarayonining sintaktik komponentga ham ega ekanligini ko'rsatadi: *vingt et un, trente et un, quarante et un, cinquante et un*.

Bu bog'lovchi faqat un bilan qo'llanadi va son komponentlari o'rtasidagi munosabatni grammatik jihatdan belgilaydi. Turkiy tillarda bunday sintaktik vositaning mavjud emasligi ularda numeral formation jarayonining to'liq leksik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi<sup>29</sup>.

Fransuz tilida vigesimal, ya'ni yigirmalik sanoq modelining saqlanib qolganligi mazkur til numeral tizimining tarixiy qatlamlarini namoyon etadi: *quatre-vingts* ( $4 \times 20$ ), *quatre-vingt-dix* ( $4 \times 20 + 10$ ), *quatre-vingt-quinze* ( $4 \times 20 + 15$ ).

Bu yerda miqdoriy ma'no chiziqli qo'shilish orqali emas, balki arifmetik amallar orqali shakllanadi. Kognitiv nuqtai nazardan bu holat miqdor tushunchasining konseptuallasuvi hisoblash operatsiyasi orqali amalga oshirishini ko'rsatadi.

Turkiy tillarda esa sanoq jarayoni chiziqli qo'shilish modeliga asoslanadi va miqdor bosqichma-bosqich konkretlashib boradi. Shu ma'noda fransuz tili numeral tizimi konseptual jihatdan «noshaffof», turkiy tillarda esa «shaffof» xarakterga ega<sup>30</sup>.

Yuzlik va mingliklarning qo'llanishida ham morfologik moslashuv kuzatiladi:

*deux cents* — ko'plik, *deux cent trente* — ko'plik qo'shimchasi tushadi.

Bu holat sintaktik pozitsiyaning morfologik shaklga ta'sir qilishini ko'rsatadi<sup>31</sup>.

Fransuz tilida mille komponenti esa o'zgarmas bo'lib, ko'plik qo'shimchasini qabul qilmaydi: *deux mille, trois mille*.

Bu xususiyat uning leksik tabiatini ko'rsatadi. Tartib son yasalishi sintetik usul orqali amalga oshiriladi: *vingt-quatre* → *vingt-quatrième*.

Qo'shimchaning oxirgi komponentga qo'shilishi semantik markaz so'nggi element ekanligini ko'rsatadi va bu jihat turkiy tillar bilan tipologik umumiylikni tashkil etadi<sup>32</sup>.

Sintaktik jihatdan fransuz tilida sondan keyin ot doimo ko'plik shaklida keladi: *vingt-quatre étudiants, cent cinquante participants*.

Bu holat miqdoriy munosabatning ikkilamchi grammatik marker — ko'plik qo'shimchasi orqali ham ifodalanishini ko'rsatadi<sup>33</sup>.

Funksional jihatdan qo'shma sonlar ilmiy matnlarda, statistik ma'lumotlarda, iqtisodiy hisobotlarda va huquqiy hujjatlarda aniqlik va miqdoriy obyektlashtirish vositasi sifatida faol qo'llanadi.

Shu tariqa fransuz tili numeral formation tizimi: analitik-derivatsion, qisman multiplikativ, sintaktik element ishtirok etadigan, morfologik moslashuvga ega, orfografik jihatdan yaxlit murakkab til hodisasi hisoblanadi.

<sup>28</sup> Grevisse, Maurice; Goosse, André. Le Bon Usage. Bruxelles: De Boeck Supérieur, 2016, p. 1023–1024.

<sup>29</sup> Riegel, Martin; Pellat, Jean-Christophe; Rioul, René. Grammaire méthodique du français. Paris: Presses Universitaires de France, 2016, p. 339.

<sup>30</sup> Hurford, James R. Language and Number. Oxford: Basil Blackwell, 1987, p. 212–215.

<sup>31</sup> Grevisse, Maurice; Goosse, André. Le Bon Usage. Bruxelles: De Boeck Supérieur, 2016, p. 1026.

<sup>32</sup> Riegel, Martin; Pellat, Jean-Christophe; Rioul, René. Grammaire méthodique du français. Paris: Presses Universitaires de France, 2016, p. 340.

<sup>33</sup> Gougenheim, Georges. Grammaire de la langue française. Paris: Larousse, 1990, p. 222.

Bu xususiyatlar uni turkiy tillardagi chiziqli-shaffof additiv modeldan tipologik jihatdan farq qilishini ko'rsatadi va qiyosiy tahlil uchun nazariy asos yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 210–215-betlar.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 381–383-betlar.
3. G'ulomov A. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – 247–249-betlar.
4. Ne'matov H. O'zbek tili morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 1998. – 167-bet.
5. Qo'ng'urov R. O'zbek tilida sonlar tizimi. – Toshkent: Fan, 1980.
6. Ergin M. Türk Dil Bilgisi. – İstanbul: Bayrak Basım/Yayım, 2009. – s. 287–290.
7. Banguoğlu T. Türkçenin Grameri. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2011. – s. 348–350.
8. Korkmaz Z. Türkiye Türkçesi Grameri (Şekil Bilgisi). – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2014. – s. 452–455.
9. Riegel M., Pellat J.-C., Rioul R. Grammaire méthodique du français. – Paris: Presses Universitaires de France, 2016. – p. 336–340.
10. Grevisse M., Goosse A. Le Bon Usage. – Bruxelles: De Boeck Supérieur, 2016. – p. 1023–1026.
11. Gougenheim G. Grammaire de la langue française. – Paris: Larousse, 1990. – p. 221–222.
12. Hurford J. R. Language and Number. – Oxford: Basil Blackwell, 1987. – p. 212–215.